

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 6

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 126 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 25-iyunda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "EI-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburg, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburg, Kansas, AQSH
Ali Kopak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Oliy ta'lim islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari.....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda	20
Muxiddin Kalonov	
“Yashil” iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish	24
Muhammadiyeva Maftuna	
Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati	27
Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash.....	31
Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich	
Перспективы развития средств размещения в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана.....	40
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari	49
To'irov Yunus Alamovich	
Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari	55
Rustamov Alisher Raxmataliyevich	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish.....	62
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati.....	67
Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich	
Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi.....	71
Usmonov Sharofiddin Pazlitdinovich	
Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlari.....	76
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya.....	81
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar	86
Jiyanova Nargiza Esanboyevna	
Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari.....	93
Z. Abdikarimova, S. Madaminov	
Savdo korxonalarini boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	97
Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov	
Sociological Assessment of Migration Processes	102
Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli	
Current issues of business management in the context of digitalization of the economy	112
Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich	
Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ.....	118
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	



BANK KARTALARI ORQALI KO'RSATILAYOTGAN XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH BORASIDAGI ASOSIY TENDENSIYALARI VA MUAMMOLARI



Toyirov Yunus Alamovich

PhD, TDIU SF "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasi v.b., dotsenti

Annotatsiya: Bugungi kunda bank xizmatlari bozorida yuz berayotgan transformatsion jarayonlar natijasida tijorat banklarida innovatsion faoliyatni tashkil etish va tartibga solish masalalari ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Xususan, an'anaviy bank xizmatlari bozoriga yuqori texnologik kompaniyalarning kirib kelishi natijasida yangi trendlar va tendensiyalarning yuzaga kelishi, bank faoliyatini ko'p kanalli xizmatlardan bir kanalli xizmatlar tamoyili asosida tashkil etish, mijozlarning turmush tarziga oid xizmatlarning keng ko'lamli qo'llanilishi, shuningdek, bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lamini kengaytirish kabi masalalarga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: Bank xodimlari, foiz, koll-markazlar, chakana xizmatlar, plaformalar.

Abstract: Today, as a result of the transformational processes taking place in the market of banking services, the issues of organization and regulation of innovative activities in commercial banks are becoming one of the urgent directions of scientific and practical research. In particular, the emergence of new trends and trends as a result of the entry of high-tech companies into the market of traditional banking services, the organization of banking activities from multi-channel services to the principle of single-channel services, the wide application of services related to the lifestyle of customers, as well as, expanding the range of services provided through bank cards is being seriously considered.

Key words: Bank employees, interest, call centers, retail services, platforms.

Аннотация: Сегодня в результате трансформационных процессов, происходящих на рынке банковских услуг, вопросы организации и регулирования инновационной деятельности коммерческих банков становятся одним из актуальных направлений научных и практических исследований. В частности, возникновение новых тенденций и направлений в результате выхода высокотехнологичных компаний на рынок традиционных банковских услуг, организации банковской деятельности от многоканального обслуживания к принципу одноканального обслуживания, широкого распространения серьезно рассматривается применение услуг, связанных с образом жизни клиентов, а также расширение спектра услуг, предоставляемых посредством банковских карт.

Ключевые слова: Сотрудники банка, проценты, колл-центры, розничные услуги, платформы.

KIRISH

Amaliy manbalar tahlili asosida, fikrimizcha, tijorat banklarida (raqamli bank sifatida pozitsiyalanayotgan banklardan tashqari) bank chakana xizmatlarini ko'rsatish borasida mavjud bo'lgan amaliy muammolarni, fikrimizcha, umumlashtirilgan holda 3 ta yirik guruhga ajratish mumkin:

- 1-guruh muammolari** xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil etish bilan bog'liq bo'lsa,
- 2-guruh muammolari** o'z tarkibiga kommunikatsion aloqa kanallaridagi xato va kamchiliklarni oladi.
- 3-guruh muammolari** kiberfiribgarlik va kiberhujumlardan himoyalanihga aloqador.

Mazkur muammolarni imkon qadar batafsil ko'rib chiqishga harakat qilamiz. 1-guruhga aloqador muammolar yuzasidan quyidagilarni qayd etish mumkin.


2021-yilda Business & Finance Consulting tomonidan "Hamkorbank" ATB, "Ipak yo'li" AITB, O'zsanoatqurilishbank, O'zmilliybank, "Agrobank" ATB, Xalq banki, "Kapitalbank" ATB, "Ipotekabank" ATB, Asakabank va Mikrokreditbank ATB xodimlar, mahsulot va jarayon ketma-ketligi borasida o'tkazilgan tadqiqotlar bank xizmatlarini ko'rsatish jarayonida bir qator jiddiy muammolar mavjudligini ko'rsatib bergan.



Business & Finance Consulting tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlari orqali quyidagi muammolar aniqlangan:

- elektron navbatning mavjudligi. O'rganish maqsadida tashrif buyurilgan 35 bank filallarining faqat 11 tasida elektron navbat faoliyat yuritgan;
- 45 ta bank filialidagi mijozlarni kutib olish (reception) xizmatidan 32 tasi o'z funksional vazifalarni to'liq bajargan;
- bank xodimlarining faqat 31 foizi mijozga maslahat berishdan oldin o'zlarini tanishtirishgan, har uch holatdan ikkitasida mijoz bank xodimining ismini so'ragandan so'nggina javob olgan. Bank xodimini tanish imkoniyatini beruvchi qo'shimcha ma'lumotlar, jadval va beydjiklar 3/1 qismida mavjud bo'lgan;
- bank xodimlarining 39 foizi mijozning kimligini so'rashgan. Garchi mijoz ularga notanish bo'lsa, maslahat o'rtadan pastroq darajada bo'lgan;
- bank xodimlarining faqat 2 foizi mijozdan bank mahsulotlarini qaysi manbalardan olganini so'ragan, ularning 78 foizi mijoz boshqa banklarning qanday turdagi mahsulot va xizmatlaridan foydalanganligiga qiziqish bildirishgan;
- 11 ta bankning 4 tasida mijozlarga xizmatlar paketini (nokredit xususiyatdagi mahsulot va xizmatlar) taklif etish yo'lga qo'yilmagan. Nokredit xususiyatiga ega bo'lgan mahsulot va xizmatlar paketi hisobvraqalar ochish (21 foiz) depozit xizmatlari (14 foiz), kompleks xizmatlar (13 foiz), bank kartalari (6 foiz), sug'urta xizmatlari (0 foiz), hamkorlikdagi dasturlar (2 foiz) va boshqa turdagi xizmatlar (0 foiz) iborat bo'lgan.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari asosida yo'l qo'yilgan kamchiliklar va keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan oqibatlar quyidagi rasmda aks etgan (1-rasmga qaralsin).



1-rasm: Bank xizmatlarini ko'rsatish borasida kuzatilayotgan kamchiliklar va yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan muammolar

2-guruh muammolari bank chakana xizmatlarini ko'rsatishda kommunikatsion aloqa kanallari faoliyatiga tegishlidir. Bugungi kunda tijorat banklari hamda raqamli bank sifatida pozitsiyalanayotgan banklar faoliyatida mijozlar bilan kommunikatsion aloqa kanallari koll-markazlar hamda onlayn kommunikatsiya tizimlari orqali amalga oshiriladi.

Koll-markazlar faoliyatining ilg'or xorij tajribasi u yoki bu mijoz bilan aloqani o'rnatishda aniq belgilab berilgan standartlar asosida ishlashni taqozo etadi. Ayni paytda koll-markazlar mijozlar bilan muloqot vaqtini minimallashtirgan holda ularni mutaxassislar bilan ulanish imkoniyatini kengaytirishlari lozim bo'ladi. O'tkazilgan tadqiqotlar koll-markazlar faoliyatida quyidagi muammolar mavjudligidan dalolat beradi:

birinchidan, koll-markaz bilan ulanish imkoniyati cheklangan. U yoki bu sababga ko'ra, koll-markaz xodimlari kiruvchi qo'ng'iroqlarni qabul qilmaslik holatlari ko'plab uchraydi;



ikkinchidan, koll-markazlar orqali etarli malakaga ega bo'lgan va mijozlarning joriy muammolarini hal qilish vakolatiga ega bo'lgan xodimlar bilan ulanish imkoniyati keskin cheklangan;

uchinchidan, koll-markazlarda faoliyat yurituvchi xodimlar maxsus malaka va vakolatlarga ega bo'lmagan turib, mijozlarni qiziqtiruvchi masalalar bo'yicha maslahat berishga harakat qilish holatlari ko'plab uchraydi. Bunda olingan maslahat sifati o'rtadan past darajada baholanadi.

Kiberfiribgarlik va kiber hujumlar chakana bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish va bank faoliyati xavfsizligi darajasini oshirishdagi asosiy to'siqlardan biri bo'lib qolmoqda. Ilmiy tadqiqot ishi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib mazkur masalaga batafsil to'xtalib o'tmaymiz. Chunki bunday muammolarning aksariyat qismi tizimli xususiyatga ega bo'lib, alohida tadqiqotlarni talab etadi.

Ko'plab manbalarda US Bank va Bank of America chakana banking sohasida eng katta yutuqlarga erishgan banklar sifatida e'tirof etiladi. Buni e'tiborga olgan holda Bank of America tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar tarkibini tahlil qilamiz (2-rasmga qaralsin).

1.2-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, mavjud va potensial mijozlarga Bank of America tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar quyidagicha guruhlanishi mumkin:

1-guruh xizmatlari (umumlashtirilgan holda Consumer Banking) tarkiban chakana banking (Retail Banking) va iste'mol banking (Preferred Banking);


2-guruh xizmatlari (umumlashtirilgan holda Global wealth & Investment management)

- Merrill tizimi (Merrill) jismoniy shaxslarga investitsion va boshqa turdagi xizmatlarni ko'rsatish va Privat banking (Private Bank) dan iborat.

3-guruh xizmatlari (umumlashtirilgan holda Business Banking kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun xizmatlar.

4-guruh xizmatlari (umumlashtirilgan holda Global Commercial Banking) korporativ mijozlarga mo'ljallangan xizmatlar:

- Global Corporate & Investment Banking (GCIB):



2-rasm: Bank of America tomonidan taklif etilayotgan moliyaviy xizmatlarning guruhlanishi¹

Tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsadlar nuqtai-nazaridan, yuqoridagi xizmat turlaridan Chakana banking (Retail Banking) tarkibiy tuzilmasiga e'tibor qaratamiz. Bank of America chakana xizmatlari:

¹ <https://about.bankofamerica.com/en> - ma'lumotlari asosida tayyorlangan.



- onlayn va mobil banking platformalari (bank hisobotlariga ko'ra mazkur platformalarga ulangan uy xo'jaliklari soni 2021-yilda 2020-yilga nisbatan 70 foizga oshgan);
- Erica va Zelle tizimlari (Erica orqali amalga oshirilgan bank operatsiyalari hajmi 231 mlrd. AQSH dollarini tashkil etib, 2021-yilda utgan yilga nisbatan 64 foizga ko'paygan. O'z navbatida, Zelle tizimida xizmat ko'rsatilgan mijozlar soni 427 million nafarni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 217 foizga ko'paygan).


Avvalambor shuni ta'kidlash lozimki, bankning chakana xizmatlar segmenti uchun e'lon qilgan bosh maqsadi "Bugun mijozlarga yordam berish orqali ularning istiqbolda rivojlanishiga ko'mak beramiz" tarzida ifodalanadi. Jismoniy shaxslar va uy xo'jaliklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va moliyaviy muammolarni bartaraf etish maqsadida bank tomonidan quyidagi xizmat va mahsulotlar taklif etiladi:

- Bank of America Advantage Safe Balance Banking overdraft uchun komissiya hajmini imkoniyatini yaratuvchi hisobvaraqa;
- BankAmericard® himoyalangan kartasi kredit tarixini shakllantirish, yaxshilash va mustahkamlashga xizmat qiladi;
- Keep the Change® debetli (kartada mavjud mablag' hisobidan) to'lovlarni amalga oshirish yakuniga qarab, jamg'armalarni shakllantirish;
- Balance Assist qisqa muddatli likvidlikni ta'minlash (30 kungacha bo'lgan kredit taqdim etish) bo'yicha xizmatlar;
- Balance Connect™ kreditga qaramlik darajasini kamaytirish bo'yicha xizmatlar (daromad va xarajatlarni rejalashtirish);
- Better Money Habits xususiy va oilaviy mablag'larni rejalashtirish, boshqarish va jamg'arish bo'yicha bepul metodik yordam (moliyaviy savodxonlik) xizmati.

Shuni e'tiborga olish lozimki, chakana banking quyi va o'rta daromadga ega bo'lgan aholi qatlamining (LMI) moliyaviy ehtiyojlarini qodirishga mo'ljallangan.

Chakana bank xizmatlari yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlarni mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar tarkibiy tuzilmasini tahlil qilish bilan davom ettiramiz.

"Hamkorbank" ATB tomonidan jismoniy shaxslarga ko'rsatilayotgan xizmatlar oltita yo'nalishni qamrab oladi (3-rasmga qaralsin). Ular jamg'arma (aholi pul mablag'larini bank depozitlariga jalb qilish); chakana kredit (ipoteka, avtokredit, iste'mol krediti, overdraft va boshqalar); xojiy vayuta operatsiyalari (konversiya, inkassoga qabul qilish, transchegaraviy o'tkazmalar); bank kartalari (muomalaga chiqarish, kartadan kartaga pul o'tkazmalari, xorijiy bank kartalari ekvayringi va boshqalar); interaktiv xizmatlar (internet-banking, SMS-Banking, "AloqaBusiness", QR kod orqali operatsiyalarni amalga oshirish va boshqalar); pul o'tkazmalari (xorijiy valyutadagi pul o'tkazmalari, ichki bank pul o'tkazmalari, SWIFT tizimi orqali to'lovlar, GPI global to'lov tizimi va boshqalar).



3-rasm: "Hamkorbank" ATB tomonidan jismoniy shaxslarga taklif etilayotgan xizmatlarning guruhlanishi



Raqamli sifatida pozitsiyalanayotgan “Anorbank” va TBS bank tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar (xizmatlar mijozlarning alohida guruhlariga yo'naltirilmagan) umumlashtirilgan holda quyidagilardan iborat:

- kredit operatsiyalari (chakana kreditlar, avtokredit);
- depozit operatsiyalari;
- mobil ilovalar orqali operatsiyalar,
- uzaytirilgan to'lovlar;
- pul o'tkazmalari;
- to'lovlar;
- bank kartalari bo'yicha operatsiyalar.

Shuni qayd etish lozimki, chakana bank xizmatlarini taqdim etish kanallarini rivojlantirish masalalari ma'lum xususiyatlari va yo'nalishlari ko'plab mamlakatimiz va xorijlik olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Xususan, O.A.Popovning “Plaformalar konsepsiyasi asosida innovatsion ekotizimni rivojlantirish jarayonlarni boshqarish” nomli ilmiy tadqiqot ishida² xizmat ko'rsatish sohasida yangi biznes-modellarni joriy etish orqali iqtisodiyot sohalari va bozorlarni transformatsiyalash imkoniyatini kengaytirishi, platformalar alohida olingan kompaniya doirasidan tashqariga chiqishi hisobiga yangi shakldagi hamkorlik aloqalarini o'rnatish hamda raqobat afzalliklarini yaratishi, raqamli platformalar innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish drayveriga aylanganligi, shuningdek, platformalarning o'zi doimiy o'zgarishda ekanligini qayd etib o'tgan. Shu bilan bir qatorda, ishda mazkur sohadagi asosiy muammolar texnologik platformalarni takomillashtirish, inson kapitalini rivojlantirish, faoliyat samaradorligini oshirish bilan bog'liqlik ekanligi e'tirof etilgan.

Z.T.Mamadiyarovning “Tijorat banklarida masofaviy xizmatlarni rivojlantirish” nomli dissertatsiya ishida³ bank xizmatlarini masofaviy bank xizmatlarining samaradorligi oshirish uchun operatsion xarajatlar barqarorligiga erishish, mijozlarning qanoatlanishi darajasi ko'rsatkichini bank faoliyatiga joriy etish, bank infratuzilmasini moliyalashtirish, risklarni boshqarish kredit amaliyotini takomillashtirish, mijozlarga xizmat ko'rsatishda maxsus avtomatlashtirilgan rejimni kiritish, bank filiallarida xarajatlarni kamaytirish va to'xtovsiz faoliyatni ta'minlash maqsadida 24/7 rejimida ishlovchi smartofislarni tashkil etish, masofaviy bank xizmatlari ommabopligini ta'minlash va mijozlar sonini oshirish uchun bank xizmatlari bozorini tahlil etishni kuchaytirish borasida taklif va tavsiyalar o'z ifodasini topgan.

XULOSA

Tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarni qayd etish mumkin:

- bank kartalari bilan bog'liq bank xizmatlari sohasiga faol kirib kelayotgan moliyaviy texnologiyalar va innovatsion texnologiyalar mavjud va potensial mijozlarga mo'ljallangan “moliyaviy savodxonlik” tadbirlarini tubdan o'zgartirishni taqozo etmoqda. Bunda asosiy e'tibor, mijozlarning alohida qatlamlarining qiziqishiga sazovor bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar va boshqa axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali reklama kompaniyalarini o'tkazishga qaratilishi maqsadga muvofiq. Shu bilan bir qatorda, bank tomonidan amaliyotga joriy etilayotgan bank va nobank xizmatlarni keng targ'ib qilishda bank aksiyadorlari, hamkorlar va mahalliy jamoatchilik imkoniyatlaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish zarur bo'ladi;
- bank kartalari bilan bog'liq bank xizmatlarini ko'rsatishdan ko'zlangan bosh maqsad jismoniy shaxslar va oilaviy byudjetni samarali tashkil etish va boshqarishda ko'mak berishdan iboratligini e'tiborga olgan holda, taklif etilayotgan mahsulot va xizmatlar paketi uch guruhga ajratilishi lozim:
 - a) xususiy byudjet,
 - b) oila byudjeti,
 - d) hamkorlikdagi byudjet mablag'larini rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish imkoniyatini beruvchi akkauntlar.

Mazkur akkauntlar tijorat banklarining mobil ilovalarida sodda va ishlatishda qulay bo'lgan interfeyslar ko'rinishiga keltirilishi kerak bo'ladi;

2 Полова О.А. Управление развитием инновационной экосистемы на основе платформенной концепции. Диссер. на соис. уч. степ. канд. экон. наук. Воронеж 2021.

3 Mamadiyarov Z.T. “Tijorat banklarida masofaviy xizmatlarni rivojlantirish”. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent 2021.



- bank kartalari bilan bog'liq bank xizmatlarini ko'rsatish jarayoni mobil ilovalarni yuklab olishdan boshlanishini e'tiborga olgan holda, mobil ilovalarni yuklab olish bevosita banklarning rasmiy saytlari bilan bir qatorda, turli ijtimoiy tarmoqlar, videoxosting va boshqa muqobil kanallar orqali olishni ta'minlash zarur bo'ladi. Bunda mijozlarning turli guruhlariga mo'ljallangan reklama roliklari va boshqa vositalarning qo'llanilish, fikrimizcha, muhim ahamiyat kasb etadi;
- bank kartalari bilan bog'liq bank xizmatlarini ko'rsatish sohasi bank faoliyatida tezkor rivojlanib borayotgan sohalardan biri bo'lishiga qaramasdan, yirik moliyaviy investitsiyalarni talab etadi. Investitsiyalar tezkorlik bilan iqtisodiy samara berishi dargumon. SHuningdek, tranzaksiyalarni o'tkazish va qayta ishlash bilan bog'liq xarajatlarning oshib borishi, moliyaviy texnologiyalardagi tezkor o'zgarishlar hisobiga biznes modellarni qayta ko'rib chiqish zaruratining yuzaga kelishi, bigtex va fintex kompaniyalarning chakana xizmatlar bozoriga tajovuzkor tarzda kirib kelishi, yosh va istiqbolli kadrlar uchun raqobat kurashining yuqori darajaga chiqishi va boshqa ko'plab ichki hamda tashqi muhitga oid omillar operatsion xarajatlar hajmining oshib borishiga olib keladi;
- taklif etilayotgan xizmatlar assortimentini mavjud kon'yukturaga moslashtirish, innovatsion imkoniyatlarni kengaytirish, mijozlarga personallashtirilgan xizmatlarni taklif etish va boshqalar moliyaviy texnologiyalar va mijozlar bevosita muloqot qilishga ixtisoslashgan xodimlarga bo'lgan talabni oshirib yubormoqda. Bank faoliyatining muayyan sohalarida inson omili ta'sirini kamaytirish samaradorlikni ta'minlash imkoniyatini bersa, chakana xizmatlar sohasi (to'lovlardan tashqari) mijozlar bilan bevosita muloqotni talab qiladi. Buning natijasi raqamli bank sifatida pozitsilanayotgan banklarda xodimlarni saqlash xarajatlari oshib bormoqda;
- to'lovlarni amalga oshirishning muqobil kanallari soni va turlarining oshib borishiga qaramasdan, bank kartalari va naqd pul orqali amalga oshirilayotgan operatsiyalar hajmi yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, yaqin istiqbolda mazkur holatning u yoki bu tomonga keskin o'zgarishi ro'y bermaydi. Bu mijozlarda pul mablag'lari harakatiga nisbatan konservativ yondashuvning saqlanib qolishi bilan izohlanishi mumkin. Mazkur holat bank kartalari hisobvaraqlari orqali amalga oshirilayotgan operatsiyalar Super-app texnologiyalari orqali bosqichma-bosqich kengaytirib borishni talab etadi;
- mavjud va potensial mijozlarning moliyaviy imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda, ularning har bir guruhi uchun mo'ljallangan akkauntlarning ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Banklarning mobil ilovalarida taklif etilayotgan xizmatlarning aksariyat qismidan (xususan, marketpleyslar) foydalanish darajasining pastligi mazkur masalaning zaruratini asoslab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabridagi "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni. review.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF -5992 sonli Farmoni. lex.uz>ru/docs/-4811025
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-son "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. lex.uz>docs/-3593541
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari avtomatlashtirilgan bank tizimlarida axborotni muhofaza qilish to'g'risida Nizom. lex.uz>docs/-4763600
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2018-yil 2-iyul №3030-sonli "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida"gi nizom.
6. <https://www.investopedia.com/terms/r/retailbanking.asp>
7. <https://www.pwc.com/gx/en/industries/financial-services/publications/financial-services-in-2025/retail-banking-2025.html>
8. <http://qishloqqurilishbank.uz/uz/>
9. <https://cbu.uz/oz/monetary-policy/analysis/683086/>
10. www.stat.uz
11. <https://uzcard.uz/services>
12. <https://www.zoodpay.com/>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

